IRFAN
AKADEMIYASI
ILM · TA'LIM · TARAQQIYOT

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILM, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA INNOVATSIYALAR
UCHUN YANGI IMKONIYATLAR

NOYABR

TOSHKENT
O'ZBEKISTON

MEN KORRUPSIYAGA QARSHIMAN

Kenjayeva Maloxat Baxodirjonovna

Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti

Arabshunoslik oliy maktabi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada korrupsiya tushunchasi, uning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sirlari, kelajak avlodga yetkazadigan zararlari hamda unga qarshi kurashishning samarali yo'llari yoritilgan. Korrupsiya nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy tanazzulga ham olib kelishi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, yurtimizda korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan islohotlar va yoshlarning ushbu jarayondagi o'rni tahlil qilinadi. Maqola muallifning shaxsiy pozitsiyasiga asoslangan bo'lib, har bir fuqaroning korrupsiyaga qarshi kurashdagi mas'uliyati alohida e'tirof etilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, poraxo'rlik, adolat, halollik, yoshlar, islohot, jamiyat, qonun ustuvorligi.

KIRISH. Bugungi globallashuv davrida mamlakatlar taraqqiyotiga jiddiy tahdid solayotgan eng dolzarb muammolardan biri bu - korrupsiyadir. U davlatning iqtisodiy salohiyatini zaiflashtiradi, xalqning turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va eng yomoni, jamiyatda adolat va ishonchni yo'qotadi. Korrupsiya bo'lgan jamiyatda hech qachon barqaror taraqqiyot bo'lmaydi. Shuning bois ham bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurash nafaqat davlat organlarining, balki har bir fuqaroning muhim vazifasiga aylanmoqda.

I. ASOSIY QISM.

I.1: Korrupsiya – taraqqiyotning dushmani. Korrupsiya – lavozim vakolatlaridan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanish, pora olish yoki pora berish, tanish-bilishchilik asosida ish yuritish kabi holatlarni o'z ichiga oladi. Tarixdan ma'lumki, korrupsiya kuchaygan mamlakatlarda iqtisodiy inqiroz, siyosiy beqarorlik va ijtimoiy adolatsizlik avj oladi.

Masalan, ta'lim tizimidagi korrupsiya yoshlarning haqiqiy bilim olish imkoniyatini cheklaydi. Pora evaziga imtihonlardan o'tish hollari yoshlar ongida adolatsizlik va umidsizlikni kuchaytiradi. Sog'liqni saqlash tizimidagi korrupsiya esa insonlarning hayotini xavf ostiga qo'yadi.Har bitta sohadagi korrupsiya qo'rqinchli aslida.

Transparency International tashkiloti 2023-yilda e'lon qilgan "Corruption Perceptions

Index" reytingida 121-o'rinda edi. Bu esa korrupsiyaga qarshi kurashning hali ham dolzarbligini ko'rsatadi.

I.2: Davlat siyosatida korrupsiyaga qarshi kurash. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir. So'nggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbusi bilan "Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi" tashkil etildi hamda shu sohaga oid maxsus qonunlar qabul qilindi. 2020-yil 29-iyundagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Farmonida korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab qo'yildi. Davlat xizmatlarida raqamlashtirish jarayonlari kengaytirilib, inson omilini kamaytirish orqali korrupsion holatlarning oldi olinmoqda. Xorijiy tajribaga murojaat qiladigan bo'lsak, masalan, Singapurda korrupsiyaga qarshi qat'iy siyosat natijasida davlat boshqaruvida shaffoflik ta'minlandi va mamlakat dunyodagi eng past ko'rsatkichga ega davlatlardan biriga aylandi.

I.3: Shaxsiy pozitsiya va yoshlarning roli. Korrupsiyaga qarshi kurash faqat davlat organlarining vazifasi emas, unda har bir fuqaroning, xususan yoshlarning ham o'rni beqiyosdir. Halollik madaniyatini shakllantirish, adolat va qonun ustuvorligini asosiy qadriyat sifatida qabul qilish yosh avlod zimmasiga yuklatilgan eng muhim mas'uliyatlardan biridir.

Muallif sifatida men o'z shaxsiy pozitsiyamni ham bildirmoqchiman: "MEN KORRUPSIYAGA QARSHIMAN!". Chunki pora olish ham, berish ham jamiyatni yemiruvchi jinoyatdir. Agar insonlar halollikni hayotiy prinsip sifatida qabul qilsa, korrupsiya uchun jamiyatda joy qolmaydi.

Maktab va oliy ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish orqali yoshlar ongida halollik, mas'uliyat va vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash mumkin. Fuqarolar korrupsiyani jamiyatni yemiruvchi illat sifatida anglab yetishi va unga qarshi faol pozitsiyada bo'lishi zarur. Zero, kelajagini o'ylagan, Vatanini sevgan har bir yosh korrupsiyaga qarshi kurashishda faol bo'lishi shart.

Xulosa. Korrupsiya – iqtisodiy va ma'naviy tanazzulga olib keluvchi, jamiyatni ichidan yemiruvchi eng xavfli illatlardan biridir. Agar unga qarshi kurashda befarqlik qilinsa,

u kelajak avlodning orzu-umidlarini yo‘qqa chiqaradi.

Shu boisdan siz, men, har bir fuqaro, ayniqsa, yoshlar korrupsiyaga qarshi kurashda faol bo‘lishi shart. Zero, halollik va adolat ustuvor bo‘lgan jamiyatgina yuksak taraqqiyot sari dadil qadam tashlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 29-iyun.

2. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, 2017-yil 3-yanvar.

3.Sh.M. Mirziyoyev, “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

4. “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturi” – Rasmiy hujjat, 2023-yil.

5. Transparency International. Corruption Perceptions Index 2023.